

SULTON JALOLIDDIN MANGUBERDI FAOLIYATI
TARIXIDAN LAVHALAR

Mo‘minova Gulchehra Ismoilovna – Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti o‘qituvchisi,
Tirkashova Mavluda Alisher qizi- Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazmshohlar davlatining shahzodasi, Anushteginiylar sulolasining so‘nggi hukmdori, janglarda tengsiz jasoratlar ko‘rsatgan, o‘zbek xalqining milliy qahramoni sifatida qadrlanuvchi Sulton Jaloliddin faoliyati tarixi haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Sulton Jaloliddin dastlab, Xorazmshohlar davlatini mustahkamlash, keyinchalik uning sarhadlarini qayta tiklash uchun qilingan janglarda o‘z harbiy mahorati va mardlik jihatlarini ko‘rsata olgan hukmdor edi.

Kalit so‘zlar: Xorazmshohlar davlati, mo‘g‘ullar bosqini, Ashura oroli, Sulton Jaloliddin, Begdili urug‘i, Parvon janggi, Sind daryosi bo‘yidagi jang, Arzinjon janggi, Kurd tog‘lari, Shahobiddin an-Nasaviy.

Xorazmshohlar davlati XIII asr boshlarida juda keng hududni egallab, o‘z qudrati cho‘qqisiga erishgan bo‘lsada, o‘zaro ichki nizo, boshboshdoqlik oqibatida mamlakat ancha zaiflashdi. Bunday siyosiy vaziyatdan xabardor bo‘lib turgan Chingizxon o‘z siyosiy ta‘sirini o‘tkazishni boshladi. Mamlakatda vaziyat unga qo‘l keldi va bu orada sulton Muhammadning ham ahvoli yomonlashdi. Orolida sultonni kasali zo‘rayganidan keyin va onasi asirlikka tushganini eshitganidan so‘ng Jaloliddinni hamda orolda bo‘lgan uning ukalari O‘zloqshoh va Oqshohni huzuriga chaqirdi va ularga bunday dedi: “Mamlakatda hukmronlik iplari uzildi va kuchsizlandi va yengildi. Bu dushmanning asl maqsadlari nima ekanligi ayon bo‘ldi: uning tirnoqlari va tishlari mamlakat badaniga qattiq botdi. Men uchun ulardan qasosni o‘g‘lim Manguberdi olishi mumkin, shuning uchun

mana uni taxt vorisi qilib tayinlamoqdaman. Sizlar ikkalangiz unga bo'ysunishingiz va amriga quloq solishingiz kerak"[Buniyotov Z. 1998. 126-132-b.].

Shundan keyin sulton Muhammad Xorazmshoh hukmdorlik qilichni o'z qo'li bilan Jaloliddinning beliga osib qo'yadi. Bu voqealar 1220-yil noyabrda Ashura orolida sodir bo'lgan edi. Bu voqeadan bir necha kundan so'ng Jaloliddinning otasi halok bo'ldi. Jaloliddinning endigi maqsadi mamlakatni birlashtirish, xalq tinchligini ta'minlashdan iborat edi. Bu maqsad yo'lida birinchi harakat dushmanlarga qarshi kurashish edi. Otasiga bergan va'dasi mamlakat sarhadlarini tiklash borasida dastlab kelishuvchilik siyosatini olib bordi. Shu tariqa Xorazmshohlar davlati tarixida qiyinchiliklar, jangu-jadallarda kechadigan umr nasib qilgan, Sulton Jaloliddinning davri boshlandi.

Avvalboshda Jaloliddinning o'ziga to'xtalsak, Jaloliddin Manguberdi 1198- yilda Xorazm diyorida tug'ilgan. Uning otasi Alouddin Muhammad, onasi esa Oychechak xonim bo'lib, u Anushteginiylarning so'nggi hukmdori edi. Jaloliddinning kelib chiqishi turkmanlarning Begdili urug'iga borib taqaladi [www.wikipedia.uz.internet sayti].

Jaloliddin Manguberdi voyaga yetgach, otasi uni G'azna, Bomiyon, G'ur, Bust, Takinobod, Zamindovar va Hindiston hududlarigacha bo'lgan yerlarga hokim va taxt vorisi etib tayinlagan. Bu voqealar 1215-yilda bo'lgan bo'lib, keyinchalik, Turkon xotun va qipchoq amirlarining qat'iy noroziligi sababli Qutbiddin O'zloqshoh foydasiga vorislikdan mahrum etilgan. Jaloliddin Manguberdi otasining harbiy yurishlarida ishtirok etib, Irg'iz daryosi bo'yidagi jangda o'zining jasur jangchi, iqtidorli sarkardalik qobiliyatlarini namoyish etgan [O'zbekiston tarixi. 1-qism. 2018. 169-172-b.].

Muhammad Xorazmshoh dastlab Jaloliddinni taxt vorisi etib tayinlamadi, chunki uning ukasi G'iyosiddin taxtga davogar edi. Keyinchalik, Xorazmshohning mo'g'ullar hukmdori Chingizxondan yengilishi natijasida vasiyatga ko'ra, mo'g'ullardan o'ch olish va davlatini tiklash uchun Jaloliddin taxt vorisligiga tayinlanadi.

Sulton Jaloliddin shunchalik kuch-qudaratga ega ediki, uning shaxsiy kotibi, tarixchi an-Nasaviy o‘z asarlarida shunday yozadi “Jaloliddin qorachadan kelgan o‘rta bo‘yli turkiychadan kelgan odam edi. U jiddiy shaxs edi kulmasdi o‘ta jiddiy bo‘lib faqat jilmayib qo‘yardi”[Nasaviy. 1999. 17-20-b.]. U shunday tarbiyalandiki u hatto o‘z faoliyati davomida dunyoni larzaga solgan mo‘g‘ullar hukmdorini ham lol qoldirdi ya’ni bu jasoratiga hatto Chingizxon tan bergan edi.

Jaloliddin o‘z faoliyati davomidagi jasorati uni siyosiy hokimiyatga chorlaydi. Uning dastlabki dushmanlarga qarshi kurash olib borgan jangi Valiyon qal’asini qamal qilayotgan mo‘g‘ul qo‘shinlariga qarshi hujum qilib ularni tor-mor etdi. Shundan so‘ng Jaloliddin umrining oxirigacha Vatanini va o‘z xalqini himoya qilish uchun kurash olib bordi. 1221-yilda Parvon dashtida bo‘lgan jangda mo‘g‘ullarning 45 ming kishilik qo‘shinini yengadi [Bo‘riyev O., Toshev N. 1999. 89-91-b.].

Bu g‘alabalar nashidasi uzoqqa cho‘zilmadi, Chingizxon katta qo‘shin to‘plab Jaloliddin Manguberdiga qarshi shaxsan o‘zi otlanadi. Fapdiz qal’asi yaqinida Jaloliddin Manguberdi Chingizxon qo‘shinining ilg‘orini tor-mor keltiradi va kuchi ozligi sababli Sind (Hind) daryosi tomon chekinadi. Chingizxon qo‘shini Jaloliddin Manguberdini daryodan o‘tishiga imkon bermay qurshab oladi. 1221-yil 25-noyabrda bo‘lgan tengsiz jangda (Sind daryosi bo‘yidagi jang) mag‘lubiyatga uchragan Jaloliddin Manguberdi 4000 jangchisi bilan 18-20 metrlik jarlikdan Sind daryosiga sakrab [www.wikipedia.uz. internet sayti], uning o‘ng sohiliga suzib o‘tib, cho‘l ichkarisiga kirib ketdi.

Shundan so‘ng sulton Jaloliddin Shimoliy Hindiston va Kavkaz hududlarida harbiy harakatlar olib boradi. Bu janglarga to‘xtalsak, Basra yaqinidagi jang, 1225-yilda Marog‘ani egallanishi, 1225-yilda Garni qal’asi uchun, 1227-yilda Isfahon yaqinidagi janglar bo‘lib o‘tgan. Bu janglardan g‘alaba qozonganini kuzatib turgan Kuniya, Jazira va Damashq hukmdorlari birlashib Jaloliddinga zarba beradi. 1230-yilda Arzinjon yaqinidagi jangda mag‘lubiyatga uchragan Jaloliddin qayta o‘zini tiklay olmaydi[Zamonov Akbar. 2019. 143-144-b.].

Jaloliddin Manguberdining kuchsizlanganidan foydalangan mo'g'ullar 1231-yilda katta qo'shin bilan Ozarbayjonga bostirib kirib Marog'a, Tabrizni egallab, Jaloliddin Manguberdini ta'qib etishgan. Mayofariqin viloyatidagi qishloqlardan birida mo'g'ullar tungi hujum natijasida Jaloliddin Manguberdining oz sonli qo'shinini tor-mor keltiradilar, Jaloliddin Manguberdini o'zi esa ta'qibdan qutulib Kurdiston tog'lariga chiqib ketgan. Bu yerda qaroqchi kurdlar qo'lga asir tushib, 1231-yil avgust oyining o'rtalarida fojiali o'ldirilgan [O'zbekiston tarixi. 1-qism. Toshkent 2018].

Jaloliddin Manguberdining o'limi o'sha davr muarrixlarining tilida aytganda „yo'lbars (Chingizxon nazarda tutilgan) changalidan omon chiqqan arslon chiyabo'ri qo'lida jon berdi“ – deya ta'riflashgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Jaloliddin Manguberdi o'z hayotini jang-u jadallarda o'tkazdi. U o'z Vatanining ozodligi va xalqining tinch hayoti uchun kurashdi. Bevosita Jaloliddin bilan harbiy va siyosiy harakatlarda yonma-yon yurgan muarrix Nasaviy ma'lumotlarida keltirilganidek, Jaloliddin harbiy mahorati yuqori, odilona siyosati, davlat boshqaruvidagi xalqparvar va uddaburonligi alohida e'tiborga molikdir. Jaloliddin bosib olgan joylarida xalqning turmush darajasini yaxshilaganligi tinchlik o'rnatganligi uning qay darajada hukmdorlik salohiyatidan guvohlik beradi. 33 yillik umr, jangu jadallarda kechgan 11 yillik hukmdorlik, bir so'z bilan aytganda inson tarixda qolishi uning ko'p yashashi yoki ko'p yillar hukmronlik kursisida o'tirishi bilan emas, balki har bir vaqtdan oqilona foydalana olishidaligidadir. Zero, Sulton Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad ibn Takash faoliyati tarixi bu jihatlarni o'zida aks ettirib turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Buniyotov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). Toshkent. 1998.
2. Bo'riyev O., Toshev N. Jaloliddin Manguberdi. Toshkent. 1999.
3. Zamonov Akbar. O'rta asr tarixiy shaxslari hayotining ayrim noma'lum sahifalari. Toshkent. 2019.
4. O'zbekiston tarixi. 1-qism. Toshkent 2018.

5. Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. K. Matyoqubov tarjimasi. Toshkent. 1999.
6. www.wikipedia.uz. internet sayti.